



TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**RANGLI METALL VA QOTISHMALARNI
ERITISH VA QUYISH**



“Rangli metall va qotishmalarni eritish va quyish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Rangli metall va qotishmalarni eritish va quyish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0032



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy “Rangli metallurgiya mahsulotlari nazoratchisi”, “Metall va qotishmalar erituvchisi”, “Metall va qotishmalarni quyuvchi”, “Olovga bardoshlilikni oshiruvchi (Olovga chidamli materiallarni pechlarga soluvchi-chiqaruvchi)” kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

chushka – metall parchasi;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

eritish pechi – turli materiallarni, asosan metallarni yuqori haroratda qizdirish va eritish uchun mo'ljallangan sanoat qurilmasi;

flyus – rudaga uning erish haroratini pasaytirish va metallni bo'sh jinsdan ajratib olishni osonlashtirish uchun undan metallarni eritishda qo'shiladigan noorganik moddalar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi

tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

ligatura – bu metallga uning xususiyatlarini yaxshilash uchun qo'shiladigan qotishma;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

naryad-ruxsatnoma – ish joyini, ishni boshlash va tugatish vaqtini, uni xavfsiz bajarish shartlarini, brigada tarkibini va ishlar xavfsizligi uchun javobgar shaxslarni belgilovchi yuqori xavfli ishlarni xavfsizlik bilan amalga oshirish uchun yozma topshiriq;

nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika (NO'AvaA) – bu turli xil fizik kattaliklarni o'lchash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan uskunalar va qurilmalar to'plamidir;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pech futerovkasi – bu yuqori harorat, mexanik va kimyoviy ta'sirlardan himoya qilish uchun pechning ichki yuzasiga olovbardosh yoki issiqlik izolyatsiyalovchi qoplama qoplash jarayoni;

reklamatsiya – xaridor tomonidan sotuvchiga (buyurtmachi tomonidan bajaruvchiga) tovar (xizmat) ning sifati yoki miqdori lozim darajada emasligi munosabati bilan bildiriladigan yozma e'tiroz;

shlak – metallurgiya jarayonlarida ruda yoki metallni eritishda hosil bo'ladigan qo'shimcha mahsulot;

shteyn – rangli metallarning sulfidli rudalarini qayta ishlashda hosil bo'ladigan oraliq mahsulot;

torkretlash qurilmasi – bu siqilgan havo bosimi ostida turli yuzalarga beton yoki sement aralashmalarini qoplash uchun ishlatiladigan uskunadir.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT 2.1 — Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

t/r – tartib raqami;

ShHV- shaxsiy himoya vositalari;

NO'AvaA — nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Rangli metall va qotishmalarni eritish va quyish	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Rangli metallar va qotishmalardan turli xil quyish texnologiyalari yordamida belgilangan shakl va xossalarga ega buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar va quyimalarni olish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	B seksiyasi: Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 07 Metall rudalarini qazib olish 07.2 Rangli metall rudalarini qazib olish 07.29 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish 07.29.0 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu kasbiy standart rangli metall va qotishmalarni eritish hamda quyish ishlarini bajaruvchi mutaxassislarining faoliyatini belgilaydi. Unda eritish va quyish texnologiyalariga rioya qilish, uskunalardan xavfsiz foydalanish, mahsulot sifatini ta'minlash va mehnat muhofazasi talablariga amal qilish bo'yicha zarur malaka talablari belgilangan.	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		75433015 Rangli metallurgiya mahsulotlari nazoratchisi	3
		81219064 Metall va qotishmalar erituvchisi	3
		81219065 Metall va qotishmalarni quyuvchi	3
		81813002 Olovga bardoshlilikni oshiruvchi (Olovga chidamli materiallarni pechlarga soluvchi-chiqaruvchi)	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
	75433015 Rangli metallurgiya mahsulotlari nazoratchisi	A1.3	Rangli metallar ishlab chiqarishda nazorat ishlarini bajarish	A1.01.3	Davlat standartlari va texnik shartlari bo'yicha yarim mahsulotlar va xom ashyo sifatini nazorat qilish
				A1.02.2	Shixta, yarim va tayyor mahsulotlar sifatini oqimli tarzda nazorat qilish va baholash
2.	81219064 Metall va qotishmalar erituvchisi	B1.3	Tayyorgarlik ishlari va yordamchi operatsiyalarni bajarish	B1.01.3	Pech uskunalari, mexanizmlari va jihozlarini rangli metallar hamda qotishmalarni eritishga tayyorlash
				B1.02.3	Eritish va eritish mahsulotlarini pechdan chiqarishda yordamchi operatsiyalarni bajarish
		B2.3	Rangli metallar va qotishmalarni eritish jarayonini olib borish	B2.01.3	Pech uskunalari va olovbardosh materiallarni eritishga tayyorlash hamda nazorat qilish
				B2.02.3	Xomashyo va sanoat mahsulotlarini eritish, shuningdek rangli metall va qotishmalarni tozalash jarayonini boshqarish
3.	81219065 Metall va qotishmalarni quyuvchi	D1.3	Quyish kovshlaridan metall va qotishma eritmalarini quyma qoliplarga quyish	D1.01.3.	Quyish kovshlari yordamida metall va qotishma eritmalarini kokil qoliplarga quyish
				D1.02.3.	Quyish kovshlari yordamida metall va qotishma eritmalarini bir martalik quyma qoliplarga quyish
				D1.03.3.	Quyish uskunalari va kovshlariga xizmat ko'rsatish
4.	81813002 Olovga chidamli materiallarni pechlarga soluvchi-chiqaruvchi	E1.3	Olovga bardoshli materiallarni tayyorlash va qo'llash	E1.01.3	Olovbardosh materiallardan g'isht terish uchun ish joyi tayyorlash
				E1.02.3	Olovbardosh materialni yetkazib berish, saralash va uni terishga tayyorlash bo'yicha ishlarini bajarish
		E2.3	Qozon va pechlarning isitiladigan yuzalari va konstruksiyalarini terish va futerovka qilish ishlarini bajarish	E2.01.3	Olovbardosh materiallardan pechlarning konstruktiv elementlarini terish ishlarini bajarish
				E2.02.3	Olovbardosh materiallar bilan futerovkalash ishlarini bajarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Rangli metallurgiya mahsulotlari nazoratchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	75433
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malaka baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ishga 18 yoshga to'lgan shaxslar qo'yiladi;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki majburiy (ishga kirayotganda) va davriy tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan) o'tishi;</p> <p>Mehnat muhofazasi bo'yicha barcha turdagi yo'l-yo'riqlardan o'tganligi;</p> <p>Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish;</p> <p>Rangli metallurgiya mahsulotlari sifatini belgilangan texnik shartlar, standartlar va reglamentlar asosida nazorat qila olish;</p> <p>O'lchov va nazorat asboblariidan foydalanish, ularni to'g'ri sozlash va ishga tayyorlash;</p> <p>Mahsulotlarda aniqlangan nuqsonlarni belgilash, tasniflash va hujjatlashtira olish;</p> <p>Namuna olish tartib-qoidalariga rioya qilgan holda laboratoriya tekshiruvlari uchun namunalar tayyorlay olish;</p> <p>Texnologik jarayonlar natijasini sifat ko'rsatkichlari bilan solishtira olish;</p> <p>Nazorat natijalarini hisobot, dalolatnoma va nazorat jurnallarida rasmiylashtira olish;</p> <p>Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qila olish;</p> <p>Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha bevosita rahbariga axborot bera olish;</p> <p>mahsulot sifati uchun shaxsiy javobgarlikni his eta olish;</p> <p>nazorat jarayonida adolatlilikni saqlay olish;</p> <p>ishlab chiqarish tartib-qoidalariga rioya qilish;</p> <p>ishlab chiqarish sharoitida barqaror ishlay olish;</p> <p>texnologlar, laborantlar va ustalar bilan samarali hamkorlik qila olish;</p> <p>rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>o'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik;</p>

	mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; jamoa bilan inoq ishlash; o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Gidrometallurgiya boyitish mahsulotlari nazoratchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Termist
	3	Metallar va qotishmalar erituvchisi;
	3	Metall quyuvchi
	3	Kimyoviy tahlil laboranti
	4	Asl va nodir elementlarni ajratish apparatchisi
	5	Qimmatbaho metallarni butligi va tekshirish bo'yicha nazoratchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 - Rangli metallar ishlab chiqarishda nazorat ishlarini bajarish	A1.01.3 - Davlat standartlari va texnik shartlari bo'yicha yarimmahsulotlar va xom ashyo sifatini nazorat qilish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish kiyimlari va shaxsiy himoya vositalarini hozirgi talablarga va bajarilgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda aniqlash, qo'llash va saqlash
		2. Smenani qabul qilish va topshirishdan nazorat ishlari bo'yicha smenalik ishlab chiqarish topshiriqlari to'g'risida ma'lumotlar olish hamda berish
		3. Har xil asboblar, mexanizmlar va jihozni qo'llab yarimmahsulotlar, tayyor mahsulot va boshqa boshlang'ich ashyolar namunalarini ajratib olish, ishlash, komplektlash
		4. Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarning konditsiyasi, navi, markasi hamda maydalanganlik darajasini aniqlab, sifatini nazorat qilish va qabul qilish
		5. Qabul qilingan mahsulotning tamg'a bosilganligi va uning o'rab joylanganligi sifatini tekshirish
6. Ko'z bilan tekshiruv, fizikaviy, kimyoviy va mexanik sinash yo'li bilan analizlar natijalari bo'yicha va sinab ko'rib mahsulotning yaroqli-yaroqsizligini aniqlash		

		7. Qabul qilingan mahsulotga xulosa berish
		8. Tayyor mahsulot, namunalar, yarim tayyor mahsulotlar va xom ashyoni, mos hujjatlarini rasmiylashtirish bilan hisobga olish
		9. Tajriba namunalarini tayyorlash
		10. Namunalarni o'rab joylashtirish
		11. Har xil nazorat qurilmalarida, apparatlarida va moslamalarida yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulot tajriba namunalarini mexanik xossalarga sinash
		12. Texnologik instruksiyalarga muvofiq texnologik parametrlarni tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Tayyor mahsulotlar, xom ashyo va yarim mahsulotlar sifatini vizual tarzda aniqlay olish
		Nazorat qilishda texnik hujjatlarni rasmiylashtira olish
		Mahsulot sifatining amaldagi texnik shartlarga va standartlarga mosligini tekshira olish
		O'rnatilgan talablarga muvofiq ish joylarning elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, yorug'liligi va tozaligini baholash
		Avariya holatlarida avariya va o't o'chirish asboblardan foydalanish, shaxsiy himoya vositalarini qo'llay olish
		Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish
		Bilimlar:
		Nazorat qilinadigan mahsulot va tajriba namunalarini sinashga davlat standartlari va texnik shartlari
		Xom ashyo, yarimfabrikat, va oraliq mahsulotlarga texnik shartlari
		Namunalarni ishlash va komplektlash uchun avtomatik namuna ajratib olgichlar va jihozlarning tuzilishi
		Oddiy o'lchash asbobining xizmat vazifasi va ishlatish shartlari
		Namunalarni ajratib olish, ishlash, komplektlash qoidalari
		Taroziga tortib ko'rish qoidalari, ilova qilinadigan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi
		Qimmatbaho metallarni but saqlash bo'yicha amaldagi nizomlar va yo'riqnomalar
		Materiallarni yaroqli-yaroqsizlikka ajratish va qabul qilish bo'yicha yo'riqnomalar, texnologik yo'riqnomalar
		Mahsulotni qabul qilish uslublari
		Nazorat-o'lchash priborlari, tarozilar, hisoblash jadvallari, etalonlar, o'lchash asboblari va moslamalari, ma'lumotnomalar, analizlar berilganlaridan foydalanish qoidalari
		Nazorat qilinadigan materiallarning asosiy xossalari;
		Buyumlarning assortimenti va xizmat vazifasi

		Nazorat va sinash uchun qo'llaniladigan jihozlarning tuzilishi va ishlatish qoidalari, ularning ishida nosozliklarni aniqlash va bartaraf qilish uslublari
		Texnik hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari
		Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidasi
		Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'inga qarshi vositalardan foydalanish va avariya vositalaridan foydalanish qoidalari
A1.02.3 - Shixta, yarim va tayyor mahsulotlar sifatini oqimli tarzda nazorat qilish va baholash		Mehnat harakatlari:
		1. Ish kiyimlari va shaxsiy himoya vositalarini hozirgi talablarga va bajarilgan ishlarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda aniqlash, qo'llash va saqlash
		2. Smenani qabul qilish va topshirishda nazorat ishlari bo'yicha smenalik ishlab chiqarish topshiriqlari to'g'risida ma'lumotlar olish va berish
		3. Tarkibida metall bo'lgan xom ashyo, yarim va tayyor mahsulotlarning sifatini nazorat qilish hamda qabul qilish
		4. Turli nazorat qurilmalari, apparatlar va moslamalarda yarim va tayyor mahsulotlarni fizik-mexanik xossalari, elektr o'tkazuvchanligi hamda boshqa o'xshash sifat ko'rsatkichlari bo'yicha sinovdan o'tkazish
		5. Yarimo'tkazgich materiallarning alohida fizikaviy parametrlarini davlat standartlari va texnik shartlar bo'yicha nazorat qilish
		6. Qabul qilish va reklamatsion aktlarni va yaroqsizlikka chiqarilgan mahsulotga va yuqotishlarga akt tuzish
		7. Tayyor mahsulotni metall yoki qotishmalarning ma'lum markasiga mosligini tekshirish
		8. Yuklab jo'natiladigan quymalarning, metallar o'ramining va boshqa mahsulotning og'irligini va miqdorini aniqlash
		9. Olib kelinayotgan xom ashyo, yarim mahsulotlar va yuklab jo'natilayotgan mahsulotga hujjatlar rasmiylashtirish
		10. Tayyor mahsulotni yuklab jo'natish uchun vagonlarning, konteynerlarning va boshqa transport vositalarining yaroqliligini aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Tayyor mahsulotlar, xom ashyo va yarim mahsulotlar sifatini vizual tarzda aniqlay olish
		Nazorat qilishda texnik hujjatlarni rasmiylashtirish
		Mahsulot sifatining amaldagi texnik shartlarga va standartlarga mosligini tekshira olish
		Yuklab jo'natiladigan quymalarning, metallar o'ramining va boshqa mahsulotning og'irligini va miqdorini aniqlay olish bo'yicha ishlarni bajarish

	<p>Tayyor mahsulotlar va yarimmahsulotlar, xom ashyo hisobotlari va hisobi, yuborish va qabul qilish hujjatlarini rasmiylashtirish</p> <p>Ko'z bilan tekshirib yaroqsizlikni aniqlash</p> <p>Tayyor mahsulotni yuklab jo'natish uchun vagonlarning, konteynerlarning va boshqa transport vositalarining yaroqliligini ko'z bilan tekshirib aniqlay olish</p> <p>Belgilangan talablarga muvofiq ish joylarning tozaligi, yoritilishi, yong'in xavfsizligi, elektr xavfsizligini tekshirish</p> <p>Avariya holatlarida avariya va o't o'chirish asboblardan foydalanish, shaxsiy himoya vositalarini qo'llay olish</p> <p>Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Asl, nodir, rangli metallar va qattiq qotishmalarga davlat standartlari</p> <p>Xizmat ko'rsatilayotgan uchastkada texnologik jarayonlar</p> <p>Yaroqsizlikning tasnifi</p> <p>Texnik sertifikatlar va pasportlarni rasmiylashtirish qoidalari</p> <p>Mahsulotni nazorat qilish, sinash, qabul qilish texnikasi va usullari</p> <p>Nazorat qilinadigan xom ashyo, yarimfabrikat va tayyor mahsulotning fizikaviy-kimyoviy va mexanikaviy xossalari</p> <p>Tayyor mahsulotni yuklab jo'natish uchun transport vositalariga qo'yiladigan talablar</p> <p>Murakkab nazorat-o'lchash priborlari, apparatura, asbobning tuzilishi, xizmat vazifasi va ishlatish qoidalari</p> <p>Qabul qilish va reklamatsion aktlarni va yaroqsizlikka chiqarilgan mahsulotga akt tuzish tartibi va qoidalari</p> <p>Texnik hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari</p> <p>Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidasi</p> <p>Shaxsiy himoya vositalaridan, yong'inga qarshi vositalardan foydalanish va avariya vositalaridan foydalanish qoidalari</p>
Mas'uliyat va mustaqillik:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nazorat qilinayotgan material va mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari uchun javobgarlikni oladi 2. Aniqlangan nuqsonlar va kamchiliklar bo'yicha to'g'ri axborot beradi 3. Nazorat jarayonida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi 4. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hisobot berishda to'g'ri va xolis bo'ladi 5. Ish jarayonida nazorat tartibini o'z mustaqil qarorlari bilan amalga oshiradi 6. Tekshiruv usullari va vositalarini belgilangan standartlarga muvofiq tanlay oladi 7. Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tezkor va to'g'ri xulosa chiqaradi va amaliy chora-tadbirlarni tavsiya qiladi 8. Oddiy va takroriy nazorat ishlarini rahbar nazoratisiz mustaqil bajaradi

<p>Texnik va/yoki texnologik talab:</p>	<p>Nazorat jarayonida qo'llaniladigan o'lchov va sinov asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishi zarur; Fizik-mexanik, kimyoviy va elektr xossalarni aniqlashga mo'ljallangan nazorat qurilmalarini sozlay olishi shart; Mahsulotlarda uchraydigan asosiy nuqsonlar va ularning kelib chiqish sabablarini farqlay olishi zarur; O'lchash natijalarini belgilangan aniqlik darajasida qayd etishi shart; O'lchov asboblarini metrologik talablarga muvofiq qo'llashi zarur; Rangli metallar ishlab chiqarishning asosiy texnologik bosqichlarini tushunishi lozim; Shixta, xom ashyo, yarim va tayyor mahsulotlarni joriy, operatsion va oqimli nazorat qila olishi shart; Namuna olish, sinovdan o'tkazish va baholashni tasdiqlangan texnologik tartib asosida bajarishi zarur; Texnologik rejimlardan chetlanishlarni o'z vaqtida aniqlay olishi va xabar berishi lozim; Aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha reklamatsion hujjatlarni rasmiylashtira olishi shart Sifat nazorati natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga bog'lab tahlil qila olishi zarur; Mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi texnologik talablariga rioya qilishi lozim. O'lchash va nazorat asboblari: Shtangensirkul, mikrometr, kalibrlar, qalinlik o'lchagichlar, tarozilar (laboratoriya va texnologik), ruletk, shablon va o'lchov liniyalari; Fizik-mexanik va elektr sinov uskunolari: Mustahkamlik va qattqlikni aniqlash qurilmalari, zichlikni aniqlash moslamalari, elektr o'tkazuvchanlikni o'lchash asboblari, elektr qarshiligini aniqlash qurilmalari, nondestruktiv nazorat moslamalari; Vizual va oqimli nazorat vositalari: Vizual tekshiruv moslamalari, oqimli nazorat stendlari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari; Yordamchi va texnik vositalar: Namuna olish cho'michlari va idishlar, markalash va identifikatsiya vositalari, nazorat jurnallari va elektron hisob tizimlari, kompyuter va maxsus dasturiy ta'minot; Shaxsiy himoya vositalari: Kislotalarga chidamli kostyum, metall uchi bor charm etiklar, kislotalarga chidamli rezina qo'lpoqlar, polimer materialdan tayyorlangan fartuk, polimer materialdan tayyorlangan yengqoplar, respirator, himoya ko'zoynaklari, shovqinga qarshi quloq tiqinlari, himoya kaskasi, signal jileti, gazdan himoya niqobi</p>
--	---

Kasbning nomi:	Metall va qotishmalar erituvchisi
Mashg'ulot nomining kodi:	81219
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>Ishga 18 yoshga to'lgan shaxslar qo'yiladi;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dastlabki majburiy (ishga kirayotganda) va davriy tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'riklardan (tekshiruvlardan) o'tishi;</p> <p>Mehnat muhofazasi bo'yicha barcha turdagi yo'l-yo'riqlardan o'tganligi;</p> <p>O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik;</p> <p>Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish;</p> <p>Mehnat muhofazasi bo'yicha barcha turdagi yo'l-yo'riqlardan o'tish.</p> <p>Elektr xavfsizligi bo'yicha kamida II malaka guruhiga ega bo'lishi;</p> <p>Ko'tarish inshootlarining qo'llaniladigan turlari bilan mustaqil ishlash va stropal ishlarini olib borish huquqini beruvchi guvohnomaning mavjudligi;</p> <p>rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik;</p> <p>muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish;</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;</p> <p>Jamoa bilan samarali va hamjihatlikda ishlash;</p> <p>Aniqlik va diqqat bilan ishlash;</p> <p>Mas'uliyat va ishonchlilik;</p> <p>Tartib va intizomga rioya qilish;</p> <p>Ishchilar bilan muloqot qilishda xushmuomalalik.</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim; o'rta maxsus ta'lim;
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-6 razryadli Erituvchi (rangli metallurgiya)

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Shixtalovchi
	3	Kovshchi
	3	Olovga bardoshlilikni oshiruvchi
	3	Metall quyuvchi
3	Rangli metallurgiya mahsulotlari nazoratchisi	
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 - Tayyorgarlik ishlari va yordamchi operatsiyalarni bajarish	B1.01.3 - Pech uskunalari, mexanizmlari va jihozlarni rangli metallar hamda qotishmalarni eritishga tayyorlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Smenani qabul qilish-topshirishda smenali ishlab chiqarish topshirig'i, ish joyining holati, xizmat ko'rsatilayotgan uskunalar ishida nosozliklar ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan va talab etiladigan choratadbirlar to'g'risida axborot olish va berish
		2. Ish joyida aspiratsiya tizimi, to'siqlar, jamoaviy va shaxsiy himoya va aloqa vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi, blokirovkalar, avariya asboblari, yong'inga qarshi uskunalar hamda gazdan himoya qilish asbob-uskunalarning mavjudligi, butligi, tozaligi va sozligini tekshirish
		3. Pech uskunalari va mexanizmlari, eritish va gaz chiqarish mahsulotlarini tashish tizimlari, pechlarning texnologik bog'lamlari, moslamalar va jihozlarning texnik holatini nazorat qilish
		4. Pechlar va yordamchi uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ishga tayyorlash bo'yicha reglament ishlarini amalga oshirish
		5. Futerovkalar, metall konstruksiyalarning olovbardosh termalarining holatini ko'zdan kechirish orqali tekshirish
		6. Furma (naycha)lar, forsunkalar va havo quyish teshiglarini tozalash
		7. Eritish va metall namunalarini olish uchun texnologik asboblari, asboblari va moslamalarni tayyorlash
		8. Eritmalarni qabul qilish uchun quyma qoliplar, shakllar, cho'michlar, novlar, shlak idishlarini tayyorlash
		9. Novlar, cho'michlarga xrommagnezit, grafit eritmasi bilan ishlov berish
		10. Pechning yuklash oqmalarini, quyish darchalarini, yuklash va shlak darchalarini, ostonalarini, quyish, oqizish, ag'darish va avariya novlarini tozalash
		11. Pechlarni sovitish qurilmalariga, qoqilgan kosalarga ohak suti quyish qurilmalariga xizmat ko'rsatish
12. Tizimda va ularni pechga uzatish uskunasi texnik havo, tabiiy gaz, kislorod, kislorod-havo aralashmasi, suvning sizib chiqishini o'z kuchi bilan yoki ta'mirlash xodimlarini jalb etgan holda aniqlash va bartaraf etish		

		13. Nippellarni presslash
		14. Sifonlarni to'ldirish
		15. Purkash forsunkalariga xizmat ko'rsatish
		16. Pechlarni bug'latib sovitish qurilmalariga xizmat ko'rsatish
		17. Pechlar, soyabonlar, kukunli qoplamalarni cho'kindilardan tozalash
		18. Uskunalar va ularga tutash maydonlarni metall, chang va chiqindilardan tozalash
		Ko'nikmalar:
		Pech uskunolari va mexanizmlari, sifonlar, furlmalar, forsunkalar, novlar, pechning yuklash va quyish uskunolari, eritish mahsulotlarini tashish va gaz chiqarish tizimlari, pechlarni texnologik bog'lash, eritishda qo'llaniladigan moslamalar, qurilmalar va jihozlarning ishlash qobiliyatini vizual yoki nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika yordamida tekshira olish
		Pech futerovkasi, shixta uzatish hamda suyuq metallni pechga qabul qilish qurilmalari holatini nazorat qilish uchun NO'AvaA vositalaridan va yordamchi maxsus qurilmalardan foydalanish
		Shlakli oynani, ostonani, pech va o'choqlarni tozalashda yordamchi qurilma va moslamalarni qo'llay olish
		Eritmalarni qabul qilish uchun quyma qoliqlar, shakllar, cho'michlar, novlar, shlakli idishlarni qurita olish
		Yordamchi, flyusli materiallarni o'lchash uchun tarozilarning ishlashini tekshira olish
		Pechga texnik havo, tabiiy gaz, kislorod, kislorod-havo aralashmasi, suv uzatish tizimi va uskunasiidagi oqimlarni bartaraf etish
		Pech futerovkasining holatini asboblarda yordamida va vizual aniqlay olish
		Kran mashinistiga buyruq berish uchun shartli belgilar va radioaloqani qo'llash
		Shaxsiy himoya, yong'inni o'chirish vositalarini qo'llash va avariya asboblaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Pechni texnologik bog'lash, havo, gaz, bug', suv va elektr kommunikatsiyalarini uzatish va olib ketish sxemalari
		Eritishga tayyorlashda va uni olib borishda bajariladigan texnologik jarayonlar va reglament operatsiyalari
		Metall va qotishmalarni eritish usulida olishning zamonaviy texnologiyalari va apparat sxemalari
		Uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar, moslamalar va jihozlarning nosozligining tipik sabablari va belgilari, ularning oldini olish va bartaraf etish usullari

		Xizmat ko'rsatiladigan uskunarlar, pech uzellari va mexanizmlari ishidagi nosozliklarni aniqlash usullari va ularni bartaraf etish bo'yicha harakatlar reglamenti
		Futurovkani joriy ta'mirlash qoidalari va usullari
		Pechni tayyorlash va unga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan olovbardosh massa va materiallarning tarkibi va xossalari
		Pechlarning yuklash va shlak derazalari, ostonalari va o'choqlari, furmalari, forsunkalari va quyish teshiglarini tozalash qoidalari va usullari
		Elektrodlarni tiqish, o'stirish va uzatish jarayoni texnologiyasi
		Pech uskunariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni bog'lash reglamenti
		Uskunalarni issiq ta'mirlash va pechlarni bog'lash texnologiyalari va qoidalari
		Quyma qoliplar, qoliplar, cho'michlar, qutilarni ko'tarish-tashish inshootlari bilan stroplash va tashish qoidalari
		Eritish sexida ishlashda naryad-ruxsatnomalarni qo'llagan holda ishlarni tashkil etish qoidalari talablari
		Eritish sexidagi avariylarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va ularning oqibatlarini tugatish bo'yicha tadbirlar rejasi
		B1.02.3 - Eritish va eritish mahsulotlarini pechdan chiqarishda yordamchi operatsiyalarni bajarish
	1. Pechning asosiy va yordamchi uskunalari, texnologik jihozlar va asboblarning holati hamda ishlash qobiliyatini tekshirish	
	2. Eritishni miqdori va tarkibi bo'yicha zarur bo'lgan yordamchi, shixta, legirovchi, oksidsizlantiruvchi hamda qo'shimcha materiallar to'plami bilan to'ldirish	
	3. Kovshlar, novlar, eritish uchun yordamchi materiallarni to'ldirish uchun bosma materiallar to'plamlarini shakllantirish	
	4. Olovbardosh materiallar (aralashmalar) tayyorlash	
	5. Asbest tiqinlarni tayyorlash va o'rnatish	
	6. Avariya asboblari, yong'in o'chirish vositalari va gazdan himoya qilish uskunarining mavjudligi va butligini tekshirish	
	7. Shixta materiallarini tortish, ularni aralashtirgichda aralashtirish	
	8. Shixta materiallari va eritish mahsulotlari namunalarini olish	
	9. Eritish uchun materiallarni bunkerga va bunkerdan uzatish	
10. Chiqarish teshiklari, shlak oynalari, ostonalar, novlarni to'ldirish, yoymalarni berkitish		
11. Laboratoriya sharoitida namunalarni eritishga tayyorlash		
12. Shlakni maydalash va tashish		

		13. Quyish paytida metall yuzasidan oksid va shlak plyonkalarini olib tashlash
		14. Quymalarni qoliplardan ajratib olish, ularni taxlash, eritish raqamini bosish
		15. Quymalarni suv yoki maxsus eritma bilan yuvish, tozalash
		16. Quymalarni keyinchalik tashish uchun taxlash va bog'lash
		Ko'nikmalar:
		Pech ichidagi eritilgan metall va qotishmalarni chiqarish jarayonini kuzatish hamda tayyorlay olish
		Eritish mahsulotlarini chiqarish uchun yordamchi asbob-uskunalarni tayyorlash va joylashtirish
		Mahsulotlarni pechdan xavfsiz va belgilangan tartibda chiqarish uchun kerakli himoya vositalarini tayyorlash hamda ularni to'g'ri ishlata olish
		Eritilgan metall yoki qotishmalarni chiqarish jarayonida ish joyini xavfsiz va tartibli saqlash
		Pechni va yordamchi asbob-uskunalarni ishga tayyorlash hamda ularni texnik holatini tekshira olish
		Mahsulotlarni chiqarish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlar hamda nosozliklarni aniqlay olish va yuqori malakali xodimga xabar berish
		Eritish jarayonida harorat, bosim va boshqa texnologik parametrlarni kuzatish bo'yicha yordamchi vazifalarni bajara olish
		Mahsulotlarni chiqarish jarayonida qo'llaniladigan texnologik ko'rsatmalar va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish
		Ish yakunida yordamchi uskunalarni tozalash va ish joyini tartibga keltirish
		Eritish jarayonida yuzaga keladigan xavf va noqulay sharoitlarga qarshi tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha rahbar ko'rsatmalariga amal qilish
		Bilimlar:
		Eritish pechining, yordamchi uskunalarning, inshootlar va qurilmalarning, yuklash-tushirish mexanizmlarning, moslamalar va jihozlarning tuzilishi, ishlash prinsipi hamda texnik foydalanish qoidalari
		Havo, gaz, bug', suv kommunikatsiyalari sxemalari
		Eritishga tayyorlashda va uni olib borishda bajariladigan texnologik jarayonlar va operatsiyalar
		Qo'llaniladigan olovbardosh materiallarning xususiyatlari
		To'ldiruvchi qorishmalar sifatiga qo'yiladigan talablar
		Qo'llaniladigan nazorat-o'lchov asboblari, moslamalari va asboblaridan foydalanish qoidalari
		Olovbardosh massaning tarkibi va xossalari
		Flyus va yordamchi materiallarning tarkibi va xossalari

		Shixta, aylanma yordamchi materiallarning xossalari, ularga qo'yiladigan talablar
		Ligatura va babbrit tayyorlash tartibi
		Namunalarni eritishga tayyorlashda xomashyoni o'lchash, quritish va magnitsizlantirish qoidalari
		Pechlar, o'choqlar, furlmalar, forsunkalar, changyutgichlar, soyabonlar, novlar, derazalarni tozalash usullari
		Quyma qoliplar, shakllar, cho'michlar, qutilarni ko'tarish-tashish inshootlari bilan stropdash va tashish qoidalari
		Eritish sexida ishlashda naryad-ruxsatnomalarga qo'yiladigan talablar
		Eritish sexida ishlashda mehnatni muhofaza qilish, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari
		Eritish sexida ishlashda avariylarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va oqibatlarini barataraf etish bo'yicha tadbirlar rejasi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishlarni bajarish uchun tayyorgarlik ishlarini va yordamchi operatsiyalarni belgilangan tartibda bajarish uchun mas'ul hisoblanadi
		2. Ish joyini tartibga solish, asbob-uskunalarni tayyorlash va ularni texnik holatini tekshirishga javobgar
		3. Ish jarayonida shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish uchun mas'ul hisoblanadi
		4. Ishni xavfsiz sharoitlarda bajarish va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qiladi
		5. Ish jarayonida aniqlangan nuqsonlar, nosozliklar yoki xavfli holatlar haqida yuqori malakali xodim yoki rahbarga xabar berishda javobgar
		6. Tayyorlangan yordamchi operatsiyalar va tayyorgarlik ishlarining sifatini o'z vakolati doirasida tekshirish uchun mas'ul hisoblanadi
		7. Ish yakunida ish joyini tozalash va asbob-uskunalarni belgilangan tartibda joylashtirish uchun javobgar hisoblanadi
		8. Belgilangan tartib va texnologik ko'rsatmalarga muvofiq tayyorgarlik ishlarini mustaqil bajaradi
		9. Yordamchi operatsiyalarni oddiy va standart shaklda rahbar ko'rsatmasi bilan yoki nazorati ostida amalga oshiradi
		10. Oddiy texnologik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi
		11. Murakkab yoki nostandart holatlarda ishni to'xtatadi va yuqori malakali xodim ko'rsatmasiga asosan harakat qiladi
12. Ish joyini tartibga solish va asbob-uskunalarni tayyorlash bo'yicha oddiy qarorlarni mustaqil qabul qiladi		

B2.3 - Rangli metallar va qotishmalarni eritish jarayonini olib borish	B2.01.3 - Pech uskunalar va olovbardosh materiallarni eritishga tayyorlash hamda nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Smenani qabul qilish-topshirish paytida smenali ishlab chiqarish topshirig'i, pechlarning ish tartibi, eritishning belgilangan tartiblaridan yuz bergan og'ishlar, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan zarur chora-tadbirlar haqida ma'lumot olish va berish
		2. Eritishga tayyorgarlik ishlarining to'liqligi va sifatini nazorat qilish
		3. Belgilangan tarkib va miqdorda eritish uchun shixta, flyus hamda legirovchi materiallarning mavjudligini tekshirish
		4. Eritish uchun yordamchi materiallar sifatini nazorat qilish
		5. Novlar, quyma qoliplar, shakllar, cho'michlar, shlak idishlarining tayyorligini tekshirish
		6. Teshiklarni berkitishni tekshirish
		7. Elektr pechlarda elektrodni uzaytirish va almashtirishning bajarilishini tekshirish
		8. Suyuq qora metallni qabul qilish va rafinatsiyalangan metallni chiqarish uchun novlar futerovkasining sifatini tekshirish
		9. Pechni ishga tushirishda qizdirish grafigining bajarilishini nazorat qilish
		10. Metallni ishlab chiqarishga tayyorlashda pechlar va chiqarish teshiklariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini, sifonlar, furmalar, novlarning holatini kuzatish
		11. Agregat jurnalini va ish joyining hisobot hujjatlarini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Pech uskunalar va olovbardosh materiallarni texnik chizmalar hamda texnologik yo'riqnomaga muvofiq tanlash
		Pech va jihozlarni eritishga tayyorlash uchun joylashtirish, sozlay olish hamda ularni energiya manbalariga ulash
		Eritish jarayonida olovbardosh materiallarning sifatini va tayyorligini nazorat qilish
		Pechning konstruktiv elementlari va yordamchi moslamalarini ishga tayyorlash
		Tayyorlangan olovbardosh materiallarni eritish jarayoniga kiritishga tayyorlash
		Ish jarayonida himoya vositalari va asbob-uskunalaridan xavfsiz foydalanish
		Mahsulotlarni eritishga tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan texnologik chetlanishlar va nuqsonlarni aniqlay olish va yuqori malakali xodimga xabar berish
Eritish jarayonidagi asosiy parametrlarni kuzatish bo'yicha yordamchi vazifalarni bajara olish		
Ish joyini tartibga keltirish va asbob-uskunalarini to'g'ri joylashtirish		
Ish jarayonida texnologik va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish		

		Bilimlar:
		Qo'llaniladigan konstruksiyalarning pechlarida eritish jarayonlarining tayyorgarlik va yordamchi ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda rangli metallar metallurgiyasi asoslari
		Qo'llaniladigan konstruksiyalarning eritish pechlarida sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy, likvatsion va boshqa texnologik jarayonlar
		Pechni texnologik bog'lash, havo, gaz, bug', suv va elektr kommunikatsiyalarini uzatish va olib ketish sxemalari
		Metall va qotishmalarni eritishga tayyorlash va olib borish bo'yicha texnologik yo'riqnomalar talablari
		Eritiladigan metall va qotishmalar markalari
		Eritish mahsulotlarining asosiy xossalari va sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablar
		Ajratib olish va metall miqdoriga ta'sir etuvchi omillar
		Belgilangan tarkibdagi shixtani shakllantirish va yuklashga tayyorlash qoidalari va tartibi
		Shixta komponentlari, flyuslar, qo'ndirmalar, ligaturalar, oksidsizlantiruvchilarning xususiyatlari va fazaviy holatlariga qo'yiladigan talablar
		Xomaki metall, flyuslar, qo'shimchalar, legirovchi va katalitik qo'shimchalarning shixta quruq va suyuq materiallarini qabul qilish va pechga yuklash texnologiyalari
		Elektr pechlari elektrodlarini tiqish, o'stirish va uzatish jarayoni texnologiyasi
		Metall cho'michlar, quyma qoliplari, quyish idishlarini ishlab chiqarishga tayyorlash jarayoni texnologiyasi
		Eritish mahsulotlarini chiqarish vaqtini aniqlovchi belgilar
		Metall va shlakni donadorlash texnologiyasi
		Pechlarni sovitish tizimlarining uskunalari, erituvchi tomonidan boshqariladigan parametrlar
		Eritish jarayoni, uskuna rejimlarining belgilanganidan o'zgarishining odatiy sabablari va belgilari, bartaraf etish va oldini olish usullari
		Ko'tarish inshootlari bilan ishlashda, suyuq metall solingan cho'michlarni harakatlantirishda shartli signallar berish to'plami va qoidalari, blokirovkalar ro'yxati, avariya signalizatsiyasi, stropal ishlarini olib borish qoidalari
		Eritish sexida ishlashda naryad-ruxsatnomalarga qo'yiladigan talablar
		Eritish sexida ishlashda mehnatni muhofaza qilish, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari
		Eritish sexida ishlashda avariylarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari rejasi

	B2.02.3 - Xomashyo va sanoat mahsulotlarini eritish, shuningdek rangli metall va qotishmalarni tozalash jarayonini boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyida aspiratsiya tizimi, to'siqlar, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalari, signalizatsiya, blokirovkalar va yong'inga qarshi uskunalarni tekshirish
		2. Pech va yordamchi uskunalarni ishga tayyorlash, texnologik bog'lamlar, furma, forsunka, sifon, nov va yuklash/quyish moslamalarini nazorat qilish
		3. Olovbardosh futerovka holatini nazorat qilish va yordamchi qurilmalarni qo'llash
		4. Rangli metallar va qotishmalarni eritish, qayta eritish, rafinatsiyalash va donadorlash jarayonlarini boshqarish
		5. Pech va texnologik bog'lamlarni, yordamchi uskunalarni boshqarish
		6. Pechga shixta, suyuq materiallar, xomaki metall va qo'shimcha moddalarni yuklash va nazorat qilish
		7. Pechdagi eritish hajmi va tarkibini, puflash jadalligini, issiqlik va tortish rejimlarini boshqarish
		8. Kupelyatsiya pechlarida nodir metallarni ajratish va optimal ish rejimini saqlash
		9. Laboratoriya sinovlari uchun vakillik namunalarni olish
		10. Sifon, tindirgich, pech va o'choqda eritish mahsulotlari balandligini nazorat qilish
		11. Eritish mahsulotlari sifatini, tayyorlik darajasini va shlakni ajratib olish jarayonini nazorat qilish
		12. Oksid va shlak plyonkalarini olib tashlash
		13. Xomaki metall, tozalangan metall, qotishmalar va shlakni ishlab chiqarish
		14. Suyuqlik mahsulotlarini keyingi texnologik bo'limga o'tkazish
		15. Metall va qotishmalarni shakllar, quyma qoliplar, tigellarga quyish
		16. Pechlarni ta'mirlash yoki avariya holatlarida ishga tayyorlash, ish rejimiga chiqarish
		17. Zarur hollarda pechni avtomatik rejimdan qo'l rejimiga va aksincha o'tkazish
		18. Ish joyi agregat jurnali va hisobot hujjatlarini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Ish joyini tayyorlash va himoya vositalarini tekshirish
		Pech va yordamchi uskunalarni ishga tayyorlash, olovbardosh futerovka holatini nazorat qilish
Rangli metallar va qotishmalarni eritish, qayta eritish va tozalash jarayonlarini boshqara olish		
Pechga materiallarni yuklash, hajm va tarkibni nazorat qilish		
Puflash jadalligini, issiqlik va tortish rejimlarini kuzatish hamda oddiy kupelyatsiya jarayonlarini boshqara olish		
Laboratoriya sinovlari uchun vakillik namunalarni olish va mahsulot sifatini nazorat qilish		

		Shlak va oksid plyonkalarni ajrata olish va olib tashlash
